

**QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.03/27.02.2021.Tar.70.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI**

**KAMALOVA HABIBA MUHAMMADIYEVNA**

**XIX ASR OXIRI – XXI ASR BOSHLARIDA  
SHAHRISABZ SHAHRI TARIXI**

**07.00.01 – O‘zbekiston tarixi**

**TARIX FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PHD) DISSERTATSIYASI  
AVTOREFERATI**

**Qarshi–2024**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)**

**Contents of the dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD)**

**Kamalova Habiba Muhammadiyevna**

XIX asr oxiri – XXI asr boshlarida Shahrisabz shahri tarixi..... 5

**Камалова Хабиба Мухаммадиевна**

История города Шахрисабза конца XIX – начала XXI веков..... 25

**Kamalova Habiba Muhammadiyevna**

History of the city of Shahrisabz at the end of the 19th – beginning of the  
21st centuries..... 49

**E’lon qilingan ishlar**

Список опубликованных работ

List of published works..... 54

**QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.03/27.02.2021.Tar.70.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI**

**KAMALOVA HABIBA MUHAMMADIYEVNA**

**XIX ASR OXIRI – XXI ASR BOSHLARIDA  
SHAHRISABZ SHAHRI TARIXI**

**07.00.01 – O‘zbekiston tarixi**

**Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Qarshi–2024**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.3.PhD/Tar313 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Qarshi davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.qarshidu.uz) hamda "ZiyoNet" axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Komolov Dilshod Pulatovich**  
tarix fanlari doktori, dotsent

**Rasmiy opponentlar:**

**Xudoyqulov To'liqin Do'stboboyevich**  
tarix fanlari doktori, professor

**Mansurov Ulug'bek Umarovich**  
tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD), dotsent


**Yetakchi tashkilot:**

**Termiz davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Qarshi davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajasini beruvchi PhD.03/27.02.2021.Tar.70.05 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil "9" 11 soat 11:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 180103, Qarshi shahri, Ko'chabog ko'chasi, 17. Tel.: (99875) 221-34-13; faks: (375) 221-00-56, e-mail: qarshidu@email.uz). Qarshi davlat universiteti.

Dissertatsiya bilan Qarshi davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (242 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 180103, Qarshi shahri, Ko'chabog ko'chasi, 17. Tel.: (0 375) 225-34-13).

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil "23" 10 kuni tarqatildi.  
(2024-yil "23" 10 dagi 16 raqamli reyestr bayonnomasi).



**B.J. Eshov**

Ilmiy darajalar beruvchi  
Ilmiy kengash raisi, t.f.d.,  
professor

**N.N. Rajabova**

Ilmiy darajalar beruvchi  
Ilmiy kengash kotibi, t.f.n.,  
dotsent

**Yu.A. Ergasheva**

Ilmiy darajalar beruvchi  
Ilmiy kengash qoshidagi  
ilmiy seminar raisi, t.f.d.,  
professor

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Bugungi kunda jahonda tarixiy va yangi shaharlarni rivojlantirish borasida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilib kelinmoqda. Bu borada BMTning ilm-fan va madaniyatni rivojlantirishga ixtisoslashgan tashkiloti YUNESKO tomonidan jahondagi ko‘plab o‘z tarixiy va moddiy madaniyatiga ega bo‘lgan shaharlarni tarixiylikini saqlab qolish hamda rivojlantirish maqsadida turli dasturlar ishlab chiqilib, hayotga tatbiq etilmoqda. Jumladan, tarixiy shaharlar ekologiyasi, aholi turmush sharoitini yaxshilash, shahar infratuzilmasi va urbanizatsiya muammolari hamda ulardagi tarixiy-me‘moriy yodgorliklarini asl holida saqlab qolish masalalari O‘zbekiston tarixshunosligida ham dolzarb amaliy ahamiyat kasb etadi.

Dunyoning turli mamlakatlari va davlatlarida urbanizatsiya jarayonlari jadallik bilan rivojlanib borayotgan bir sharoitda shaharlar tarixini har tomonlama tadqiq etish hamda o‘rganish masalalari tobora globallashib bormoqda. Binobarin, jahondagi ko‘plab ilmiy tadqiqot markazlari hamda yetakchi ilmiy ta‘lim muassasalarida shaharsozlik jarayonlarini ma‘lum mintaqalarga xos xususiyatlarini o‘rganish borasida tizimli tadqiqotlar olib borilib, bugungi kunda keng rivojlanayotgan turizm sohasi masalalariga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Shuningdek, O‘rta Osiyoning o‘ziga xos qadimiy me‘moriy yodgorliklarga boy shaharlari tarixiga oid manbalarni zamonaviy usullarda o‘rganish va tarix fani muomalasiga kiritish dunyo ilm-fanining dolzarb muammosi sifatida baholanmoqda.

Bugungi kunda Vatanimiz tarixini tadqiq etish sohasidagi izlanishlarni tizimli tashkil etish, yurtimiz tarixini o‘rganishda fanlararo aloqadorlikka tayangan holda yangi, zamonaviy texnologiya va yutuqlarni ilmiy tadqiqotlarda joriy etish borasida samarali ishlar qilinmoqda. Tarix va tarixiy jarayonlar, siyosiy-tarixiy vaziyat ularning ro‘y berishidagi asosiy sabab va xususiyatlarni ilmiy jihatdan tadqiq etish, ayniqsa ota-bobolarimiz tomonidan qoldirilgan moddiy va ma‘naviy meros, tarixiy manbalarni yosh avlodga yetkazib berish ma‘rifatli jamiyat barqarorligining asosiy omilidir. Zero, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti ta‘kidlaganidak, “...Biz shu vaqtgacha tarixning o‘zimizga yoqqan joylarini olib, yoqmagan tomonini yashirib o‘tdik. Birovga yoqadimi-yoqmaydimi, g‘ururimizmi-armonimizmi, muvaffaqiyatmi yo xiyonatmi – hammasini haqqoniy yozish kerak”<sup>1</sup>. Shu jihatdan Shahrizabz shahrining XIX asr oxiri – XXI asr boshlaridagi ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy tarixini o‘rganish obyektiv zaruratga aylanmoqda.

Ushbu dissertatsiya ishi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil

---

<sup>1</sup> <https://www.gazeta.uz/oz/2021/08/31/president/>

29-oktabrdagi PF–6097-sonli “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi<sup>2</sup>, 2022-yil 28-yanvardagi PF–60-sonli “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi<sup>3</sup> farmonlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 20-fevraldagi “Qashqadaryo viloyatining Shahrisabz shahrida obyektlarni qurish va rekonstruksiya qilishga doir kompleks chora-tadbirlar dasturi to‘g‘risida”gi<sup>4</sup>, 2016-yil 25-martdagi “Shahrisabz shahrining tarixiy qismini obodonlashtirish, ko‘kalamzorlashtirish va saqlash departamentini tashkil etish to‘g‘risida”gi<sup>5</sup> qarorlarida belgilangan xalqimizning boy tarixi, moddiy va madaniy merosini ilmiy o‘rganish, targ‘ib qilish va boyitib borish kabi vazifalarni bajarishga muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Tadqiqot respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” nomli ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Shaharlar jamiyat hayotining barcha jabhalarini qamrab olganligi bois, u tarix, arxitektura, geografiya, iqtisod kabi yo‘nalishlarda tadqiq etib kelingan. Shahrisabz shahri tarixi ham aynan shu yo‘nalishlardan biri bo‘lib, mavzuga doir ilmiy adabiyotlarni davriy mansubligi, nazariy uslubiy asoslari bo‘yicha quyidagi guruhlariga ajratish mumkin:

1. XIX asrning oxiri – XX asrning boshlaridagi asarlar;
2. sovet davrida amalga oshirilgan tadqiqotlar;
3. mustaqillik davri izlanishlari;
4. xorijiy tadqiqotchilar asarlari.

*Birinchi guruhga oid asarlar, асосан, XIX asrning oxiri – XX asrning boshlarida rus va ingliz harbiylari, sharqshunoslari hamda diplomatlari asarlari va*

---

<sup>2</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 29 октябрдаги ПФ–6097-сонли “Илм-фanni 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида”ги фармони. // <https://www.lex.uz/docs/5073447>

<sup>3</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги ПФ–60-сонли “2022-2026 йилларга мўлжалланган янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги фармони. // <https://lex.uz/docs/3107036>

<sup>4</sup> Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2014 йил 20 февралдаги “Қашқадарё вилоятининг Шаҳрисабз шаҳрида объектларни қуриш ва реконструкция қилишга доир комплекс чора-тадбирлар дастури тўғрисида” ги қарори. <https://www.lex.uz/docs/2345506>

<sup>5</sup> Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2016 йил 25 мартдаги “Шаҳрисабз шаҳрининг тарихий қисмини ободонлаштириш, кўкalamзорлаштириш ва сақлаш департаментини ташкил этиш тўғрисида” ги қарори. <https://www.lex.uz/docs/2920109>

esdaliklarida<sup>6</sup> qayd etilgan bo‘lib, mazkur asarlar beklikning amirlik davridagi ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayoti tarixini o‘rganilishi bilan ajralib turadi. Ular orasida akademik I. Bekchurin, A. Kun, N. Mayev, V. Grigorev asarlarida Shahrissabzning amirlik davridagi ijtimoiy-siyosiy ahvoliga e‘tibor qaratilib, uning siyosiy o‘rni, shahar aholisi soni, milliy-etnik tarkibi, turmush tarzi, mashg‘ulot turlari, tarixiy yodgorliklariga oid ma‘lumotlar yoritiladi. Ushbu izlanishlarning Shahrissabz haqidagi umumiy qiymatini inkor etmagan holda shuni qayd etish lozimki, rus sharqshunoslarining asarlari, asosan, o‘sha davrdagi Rossiyaning mustamlakachilik manfaatlariga qaratilgan edi.

*Ikkinchi guruh adabiyotlar*, sovet davrida olib borilgan izlanishlar bilan bog‘liq bo‘lib, G.A. Pugachenkova, O.A. Suxareva, S. Zaxarov, M. Hikmatov, A.I. Choriyev, M. Ochilov, L.Y. Mankovskaya va boshqa mualliflarga tegishlidir<sup>7</sup>. Sovet davriga oid tadqiqotlarda shaharlar tarixini yoritishda hukmron mafkura g‘oyalari ta‘sirida shaharsozlik va industrilashtirish siyosatini “ulug‘lash”, muammolarni xaspo‘shlash, raqamlar ortidan quvish, shuningdek, Shahrissabz

---

<sup>6</sup> Костенко Л.Ф. Путешествие в Бухару русской миссии в 1870 г. – СПб., 1871. – 313 с.; Бекчурин И. Шахрисабзские владения по рассказам Джурабека и Бабабека / Материалы для статистики Туркестанского края. Вып 2. – СПб., 1873. – С. 22; Маев Н.А. Две недели в Шахрисабзе. Очерки Бухарского ханства / Материалы для статистики Туркестанского края. Ежегодник. Вып. V. – СПб., 1879. – С. 16-32; Яворский И.Л. Путешествие русского посольства по Афганистану и Бухарскому ханству в 1876-1879 гг. Т.1. – СПб., 1882. – С. 35-36; Матвеев Р.Р. Поездка Генерального Штаба полковника Матвеева по Бухарским и Азиатским владениям в февр. 1917г. / Сборник географических, топографических и статистических материалов по Азии. Вып. V. – СПб., 1883. – С. 11-57; Архипов. Рекогносцировка равнинной части Бухарского ханства, произведенная в 1883 г. Генерального Штаба капитаном Архиповым. / Сборник географических, топографических и статистических материалов по Азии. Вып.Х. – СПб., 1884. – С. 171-238; Кун А. Очерки Шахрисабзского бекства // Записки императорского Русского географического общества. – СПб., 1886. – С. 218-243; Кап. Гинтылло. Сведения по интендантския части, собранные в Бухаре // Сборник географических, топографических и статистических материалов по Азии. Вып. XXI. – СПб., 1886. – С. 1-53; Покотило Н.Н. Путешествие в центральную и восточную Бухару в 1886 г. // Записки Русского географического общества. – СПб., 1889. – С. 480-502; Ситняковский Н.Ф. Заметки о Бухарской части долины Зеравшана // Известия Туркестанского отделения Императорского Русского географического общества. Т.1. Вып.2. – Ташкент: 1900; Зимин Л.А. Вакуфные документы // ТВ. 1910. – № 285; Шу муаллиф. Отчет о двух поездках по Бухаре с археологической целью // ПТКЛИА. Ташкент, год 20-й. 1916. – С. 119-156; Шу муаллиф. Краткий отчет о поездке по Бухаре в 1916 г. // ПТКЛИА. – Ташкент, год 21-й. 1917. – С. 102-104; Нахшеб, Несеф, Карши: Их история и древности. – Ташкент: 1927. – С. 197-214; Вяткин В.Л. Каршинский округ, организация в нем войска и события в период 1215-1217 (1800-1803) годов // Известия Среднеазиатского отдела государственного русского географического общества. Т.18. 1928. – С. 9-26; Лунина С.Б. Города Южного Согда. – Ташкент, 1954. – С. 5; Бартольд В.В. Узбекские ханства / Сочинения. Т.2.Ч.1. – М.: Наука, 1962. – С. 163-166, 268-292.

<sup>7</sup> Сухарева О.А. К истории городов Бухарского ханства. – Ташкент: Издательство АН УзССР, 1958. – 145 с.; Тухтаматов Т.Г. Русско-Бухарские отношения в конце XIX – начале XX в. – Ташкент: Фан, 1966. – С. 28; Шу муаллиф. Победа Бухарский народной революции. – Ташкент: Фан, 1966. – С. 167-168; Очерки истории Кашкадаринской и Сурхандаринской областей Узбекистана Советского периода (1917-1932 г.) – Ташкент: Фан, 1968, – С. 226; Пугаченкова Г.А. К вопросу о реконструкциум ансамбля Доруссиодат Тимурской в Шахрисабзе. – С. 15; Пугаченкова Г.А. Термез, Шахрисабз, Хива. – М.: Наука, 1976. – С. 207; Захаров С., Хикматов М. Шахрисабз. – Тошкент: Ўзбекистон, 1979. – Б. 66; Манковская Л.Ю. Кашкадарё вохасининг архитектура ёдгорликлари. – Тошкент: Ўзбекистон, 1979. – Б. 16-57; Ҳасанов Ҳ. Сайёҳ олимлар. – Тошкент: Ўзбекистон, 1981. – Б. 43, 154, 196; Равшанов П. Адабий саҳифалар (Кашкадарё ўтмиш адабий ҳаёти тарихидан). – Тошкент: Ўқитувчи, 1985. – Б. 10-12.

shahriga ikkinchi darajali shahar sifatida qarash yaqqol ko‘zga tashlanganligini ko‘rish mumkin<sup>8</sup>.

*Uchinchi guruh mustaqillik davri tadqiqotlarida* O‘zbekiston shaharlari tarixini yangi tamoyillar asosida, milliy davlatchilik nuqtai nazaridan xolisona tadqiq etilgan ishlar<sup>9</sup> va vatanimizning eng qadimgi shaharlaridan biri hisoblangan Shahrisabz shahrining tarixiga doir bir necha

---

<sup>8</sup> Эшқувватов О. История развития социалистических городов Карши и Шахрисабза (1925-1965 гг.). Дисс. канд. ист. наук. – Ташкент, 1970.– 313 с.; Тайлаков М. История города Каттакургона (1946-1965 гг.). Автореф. дисс. канд. ист. наук. – Ташкент, 1972.– 45 с.; Аликулов М. История развития социалистического города Термеза (1946-1975 гг.). Автореф. дисс. канд. ист. наук. – Ташкент, 1979.– 24 с.; Нурмухамедов Х.У. История развития социалистического города Андижана (1917-конец 50-х годов). Автореф. дисс. канд. ист. наук. – Ташкент, 1981.–24 с.; Рахматуллаева Н.Г. Развитие социалистического Ташкента (в первой половине 60-х годов). Автореф. дисс. канд. ист. наук. – Ташкент, 1983.– 19 с.; Зухритдинов Ш.А. Возникновение новых городов и их роль в строительстве социализме в Узбекистане. Автореф. дисс. докт. ист. наук. – Ташкент, 1984.–41 с.; Турсунов С.Н. История развития новых социалистических городов Узбекистана - Денау и Шерабада. Автореф. дисс. канд. ист. наук. – Ташкент, 1985.– 20 с.; Туляганов Н.У. Становление и развитие движения породненных городов в Узбекистане (1961-1985 гг.). Автореф. дисс. канд. ист. наук. – Ташкент, 1988.– 24 с.; Гайибназаров Э. История развития города Гулистана. (1960-1970-е годы). Автореф. дисс. канд. ист. наук. – Ташкент, 1989.– 23 с.

<sup>9</sup> Амир Сайид Олимхон. Бухоро халкининг ҳасрати тарихи. – Тошкент: Фан, 1991. – Б. 25-27.; Фитрат А. Амир Олимхоннинг ҳукмронлик даври. – Тошкент: Ўзбекистон Ёзувчилар уюшмаси “Минҳож” хайрия нашриёти, 1992. – Б. 27-28, 50-52.; Равшанов П. Қашқадарё тарихи. (Энг қадимги даврлардан – XIX аср иккинчи ярмига қадар). – Тошкент: Фан, 1995. – Б. 777-778.; Шу муаллиф. Шахрисабз тарихи. – Қарши: Насаф, 2011. –205 б; Якубов Б. Шахрисабз ва Китоб тарихидан (VII-XIX асрлар биринчи ярмидаги ижтимоий-сиёсий ҳаёт) – Қарши: Насаф, 1996.; Соҳибқиронга армуғон. (Илмий тўшам). – Қарши: Насаф, 1996. –36 б.; Сағдуллаев А.С., Аминов Б., Якубов Б. Қашқадарё тарихидан лавҳалар. – Қарши: Насаф, 1997.; Воҳидов Ш. Тарихи Нафей – Бухоро амирлигига оид муҳим манба // Ўзбекистонда ижтимоий фанлар, 1997. – №9-10-11. – Б.150-154.; Якубов Б.С. Чоризм истилоси даврида Марказий Осиё бекликлари (Шахрисабз ва Китоб бекликлари сиёсий ҳаёти мисолида) // “Ўзбекистоннинг янги тарихи: концептуал методологик муаммолар”мавзuidaги Республика илмий-назарий анжуман материаллари. – Тошкент, 1998. –110 б.; Йўлдошев Б. Қашқадарё бадияти. – Тошкент: Шарк, 1998. – Б. 77-82, 146-152, 443-447, 457-460.; Қадимий Қарши. Ўрта Осиё шаҳарсозлиги ва маданияти тарихи // Халқаро илмий анжуман материаллари. – Қарши: Насаф, 1999. – Б. 83-84.; Раупов С. Чор Россияси қарамлик шароитида Бухоро амирлигидаги ижтимоий ҳаракатлар // Бухоро тарих саҳифаларида. Мақолалар тўплами. – Бухоро: 1999. –66 б.; Қиличев Р.Э. Бухоро шаҳрида ҳунармандчилик // Бухоро тарих саҳифаларида. Мақолалар тўплами. – Бухоро: 1999. – Б. 88-89.; Агзамова Г. Сўнгги ўрта асрлар Ўрта Осиё шаҳарларида ҳунармандчилик ва савдо. – Тошкент: 2000. –52 б.; Ҳакимов Н., Жўракулов О. Шахрисабз тарихи. – Қарши: Насаф, 2001. –218 б.; Жўракулов О., Эргашева Ж. Қашқадарё саноати тарихи. – Қарши: Насаф, 2001. – Б. 3, 39, 41, 59.; Аҳмедов Э. Ўзбекистон шаҳарлари мустақиллик йилларида. – Тошкент: Абу Али ибн Сино номидаги тиббиёт нашриёти, 2002. –224 б.; Шахрисабзнинг жаҳон тарихида тутган ўрни. – Тошкент: 2002. – Б. 27-28, 49-50, 70-72.; Юсупов Ш. Тарих ва адаб бўстони (Жўрабек жасорати ва фожеаси). – Тошкент: Маънавият, 2003. – Б.19-29.; Жўракулов О., Рахматов А. Шахрисабз йилномаси. – Тошкент: Фан, 2007. –60 б.; Турдиев С. Жасорат солномаси. Қашқадарё 1941-1945 йилларда. – Тошкент: Фан, 2008. – Б. 350.; Ҳамидова М. Қашқадарё воҳасининг ҳунармандчилиги тарихи (XIX-XX аср бошлари). – Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2009. –162 б.; Ўзбекистон давлатчилиги тарихи. Аннотацияли библиография. (1991-2011йй). – Тошкент: 2011. –65 б.; Зиёева Д. Ўзбекистон шаҳарлари XIX асрнинг иккинчи ярми – XX аср бошларида. – Тошкент: Yangi nashr, 2013. –338 б.; Шодмонова С. Ўзбекистон шаҳарларида трансформация жараёнлари (1917-1941 йиллар). – Тошкент: Адабиёт учқунлари, 2015. –336 б.; Камолова Ҳ.М.Асрлар оша Шахрисабз.Тошкент: Turon zamin ziyo, 2015. –193 б.; Тоғаева А. Ўзбекистонда урбанизация жараёнлари ва шаҳар маданияти муаммолари (1950-1990 йиллар). – Тошкент: Адабиёт учқунлари, 2017.–250 б.; Ўзбекистонда замонавий шаҳар маданияти. Коллектив монография (Масъул муҳаррир т.ф.д., проф. Д.Зияева). – Тошкент: Yangi nashr, 2017. –286 б.; Тўхтабоева Д. Фарғона водийсидаги урбанизация жараёнлари. – Тошкент: TURON-IQBOL, 2018. –184 б.

dissertatsiyalar<sup>10</sup> tayyorlanib, himoya qilingani hamda tadqiqot mavzusiga doir bir qator maqolalar yuzaga kelganini qayd etish zarur<sup>11</sup>.

Bu guruh adabiyotlari doirasida A.S. Sagdullayev muharrirligida nashr etilgan “Qadimgi Kesh-Shahrisabz tarixidan lavhalar”, N. Hakimov va O. Jo‘raqulovlarning “Shahrisabz tarixi”, B. Yo‘ldoshevning “Qashqadaryo badiiyati” asarlarida Shahrisabz shahri tarixiga oid yangi arxeologik va tarixiy ma’lumotlar, qadimiy va hamisha navqiron Shahrisabzning boy tarixi hamda Kesh-Shahrisabz adabiy muhiti va ijodkorlari haqida ma’lumotlar tahlil etiladi.

*To‘rtinchi guruhga mansub* xorijiy tadqiqotchilar asarlari alohida ilmiy yo‘nalishni talab etib, ayrim xorijlik tadqiqotchilarning ishlarida O‘zbekistonning ko‘zga ko‘ringan yirik tarixiy shaharlari, ya’ni Toshkent, Samarqand va Buxoro tarixiga oid iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlar to‘g‘risida umumiy ma’lumotlar

---

<sup>10</sup> Турсунов Ж.Н. История экономического и социального развития городов Узбекистана (на примере городов Байсун, Шаргунь и Шурчи). (1971-1990 гг.). Автореф. дисс. канд. ист. наук. – Ташкент, 1995. –26 с.; Қаршиев Р.И. Навоий шахрининг иқтисодий-ижтимоий ва маданий тараққиёти: тажриба ва муаммолар. (1958-1990 йй.). Тарих фан. ном. илмий даража олиш учун ёзилган дисс. – Андижон, 1996. –147 б.; Якубов Б.С. XVIII асрнинг иккинчи ярми –XIX асрнинг 60 йилларида Шахрисабз ва Китоб беклиги. Тарих фан. ном. дисс. – Тошкент, 1997. –165 б.; Эргашева Ж.Ш. Қашқадарё саноатининг барпо этилиши ва ривожланиши тарихи: янгича таҳлил ва хулосалар (1920-1970 йиллар). Тарих фан. ном. дисс. – Тошкент, 1998. –147 б.; Мўминова Г.Э. Ўзбекистонда тиббиёт ва соғлиқни сақлаш муаммо ва оқибатлари (1946-1990 йй). Жанубий вилоятлар мисолида. Тарих фан. ном. дисс. – Тошкент, 1999. –156 б.; Агзамова Г.А. XVI-XIX асрнинг биринчи ярмида Ўзбекистон шаҳарлари ва шаҳарлар ҳаёти. Тарих фан. док. илмий даража. олиш учун ёзилган дисс. – Тошкент, 2000. –342 б.; Рахматуллаев Ш.М. Социально-экономические преобразования в городах Ферганской долины в условиях независимости (1991-1996 гг.). Автореф. дисс. канд. ист. наук. – Ташкент, 2000. –С. 34.; Эшов Б.Ж. Ўрта Осиёда илк шаҳар маданиятининг шаклланиши ва ривожланиши тарихи. Тарих фан. док. илмий даража. олиш учун ёзилган дисс. – Тошкент, 2008. – Б. 292.; Соҳибова М.С. Ўзбекистонда маданий ҳаёт: тажриба ва муаммолар (жанубий вилоятлар мисолида. 1946–1985 йиллар). Тарих фан. ном. дисс. – Тошкент, 2008. –141 б.; Ҳасанов А.М. XVI-XIX асрларда шаҳарсозлик ва меъморчилик (Қашқадарё воҳаси мисолида). Тарих фан. ном. дисс. автореферати. – Тошкент, 2008. –26 б.; Мансуров У.У. 1917-1924 йилларда Фарғона водийси шаҳарлари тарихи. Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. –Тошкент, 2018. –45 б.; Насиров Б.У. Ўзбекистон аҳолисининг кундалик ҳаётида маиший хизмат тизимининг ўрни (1925-1991 йй.). Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Тошкент, 2018. –58 б.; Эштемиров Ж.С. XX-XXI аср бошларида Қарши шаҳар маданияти. Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Тошкент, 2018. – 48 б.; Ирискулов О. XIX аср иккинчи ярми – XX аср бошларида Самарқанд шаҳрида ижтимоий-иқтисодий ва маданий жараёнлар. Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Самарқанд, 2019. – 46 б.; Тўхтабоева Д.Э. Фарғона водийси вилоятларидаги кичик ва ўрта шаҳарларнинг ривожланиши: ўзгаришлар ва муаммолар (1991-2016 йй.) Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Тошкент, 2019. – 45 б.; Полвонов К.Н. Қашқадарё вилоятида шаҳарларнинг ташкил топиши ва ривожланиш тарихи(1970-2016 йй.). Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Қарши, 2021. – 46 б.

<sup>11</sup> Мусаев Н. Генерал Жўрабекнинг қотили ким? // Мулоқот, 1995. 1-2 сонлар; Сулаймонов Р., Хидиров А. Буюк Ипак йўлидаги шаҳар // Шахрисабз тонги, 2002 йил 1 ноябрь; Ташаев С. Ҳамжиҳатлик манзили // Қашқадарё, 2003 йил 5 октябрь; Эргашев Б. Фақирий олим ва шайх // Кеш, 2007 йил 30 ноябрь.; Шахрисабз беклиги очерклари // Кеш, 2007 йил 26 январь, 29 февраль; Шахрисабз ўтмишидан садо // Кеш, 2008 йил 4 июль; Туманимизнинг яқин ўтмишидан бир лавҳа // Кеш, 2008 йил 18 апрель.; Ҳазрати Имом – Буюк имом демақдир // Кеш, 2009 йил 27 февраль; Шахрисабз алломалар наздида // Кеш, 2009 йил 27 март; Яқин ўтмиш хотиралари. Сабоқ ва тажрибалар // Кеш, 2010 йил 12 март; Жаббор Халилов. Мустақиллик мени тақдиримда // Кеш, 2008 йил 22 август; Абдивали Рахим. Ғазалхон шоир, етук аллома // Кеш, 2008 йил 12 декабрь.; Мўмин Азизов. Сулола // Кеш, 2008 йил 7, 14, 21 ноябрь; Генерал Жўрабек ва эртақлардаги сеҳрли ҳаёт // Кеш, 2010 йил 29 январь.

keltirilganligini qayd etish lozim<sup>12</sup>. Mavzuga doir tadqiqotlar tahlili shundan dalolat beradiki, tanlangan mavzu shu kunga qadar maxsus dissertatsiyaviy tadqiqot sifatida o‘rganilmagan, shu boisdan mazkur dissertatsiyada Shahrisabz shahrining XIX asr oxiri – XXI asr boshlaridagi ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy tarixiga oid materiallarini yaxlit tizimga keltirish orqali qiyosiy o‘rganish asosiy maqsad qilib olindi.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya ishi Qarshi davlat universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq, “O‘zbekiston tarixining dolzarb masalalari” mavzusi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi:** Shahrisabz shahrining XIX asr oxiri – XXI asr boshlaridagi tarixini manbalar asosida ochib berishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

amirlik davrida Shahrisabz bekligida kechgan siyosiy jarayonlarni manbalar asosida tahlil qilish;

beklik iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy hayotining o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlash;

sobiq sovet davrida shahar ijtimoiy hayoti va undagi muammolarni xolisona yoritish;

shahar iqtisodiy infratuzilmasidagi ziddiyatli o‘zgarishlarni ochib berish;

shahar maorif va madaniyatining rivojlanish sohalarida amalga oshirilgan o‘zgarishlarni aniqlash;

mustaqillik yillarida shahar ijtimoiy hayotining rivojlanish tendensiyalarini ko‘rsatish;

shaharda amalga oshirilgan iqtisodiy islohotlarni yoritish;

mustaqillik sharoitida shahar tarixiy, madaniy hayotidagi o‘zgarishlarini ko‘rsatib berish;

tadqiqot mavzusi bo‘yicha xulosa va tavsiyalar berish.

**Tadqiqotning obyektini** Shahrisabz shahrining XIX asr oxiri – XXI asr boshlaridagi tarixi belgilab olingan.

**Tadqiqotning predmetini** Shahrisabz shahrining XIX asr oxiri – XXI asr boshlaridagi ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va va madaniy faoliyatiga doir masalalarni tizimli tahlil etish kabi masalalar tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiyada tarixiy tadqiqotlar olib borishning tarixiylik, obyektivlik, tizimli tahlil, qiyoslash, statistik tahlil, sotsiologik, muammoli-xronologik yondashuv kabi uslublardan foydalanilgan.

---

<sup>12</sup> Jeff Sahadeo. Russian Colonial society in Tashkent, 1865-1923. – Ottawa, 2007. – 316 p.; Stronski Paul. Tashkent: forging a Soviet city, 1930-1966. – Pittsburgh: University of Pittsburgh Press, 2010. – 368 p.; Klaus Pander. Zentralasien. – Ostfildern: DuMont Reiseverlag, 2013. – 384 p.; Борнс А. Путешествие в Бухару. Част. III. – М., 1850. – С. 460-495; Вамбери А. Путешествие по Средней Азии. – М., 1865. – С. 253; Seymour Becker. Russia’s protectorates in Central Asia Bukhara and Khiva, 1865–1924. – London, 2004. – 348 p.; Hatunoğlu Nurettin. Türkistan’da son rürk devleti Buhâra Emîrliği ve ÂlimHan. – Ankara: Ötüken, 2011. – S. – Ankara: Ötüken, 2011. – 451 s.

### **Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

Shahrisabz siyosiy hayotida mustaqillikka, rus bosqinchilari asoratiga tushmaslik yoʻlidagi kurashlar, ijtimoiy hayotda jamiyat ichidagi ijtimoiy zoʻriqishlarning kuchayishi, pirovardida XIX asrning oxirlaridagi xalq noroziliklarini kelib chiqishiga qaramay, shahar savdo va hunarmandchilik markazi boʻlganligi, shu bilan birga oʻziga xos ilmiy-madaniy muhit shakllanganligi tarixiy manbalar asosida ochib berilgan;

sobiq sovet hokimiyati yillarida shahar ijtimoiy infratuzilmasidagi ziddiyatli oʻzgarishlar, taʼlim, sogʻliqni saqlashdagi yangilanishlar, madaniy hayot rivoji va ularning aholi hayotiga koʻrsatgan taʼsiri hamda tarixiy-meʼmoriy yodgorliklarga sovetlar davrida boʻlgan munosabatlar, maʼmuriy buyruqbozlik va sinfiylikka asoslangan bir tomonlama ziddiyatli va murakkab rivojlanish jarayonlari arxiv manbalari asosida aniqlangan;

mustaqillik yillarida shaharsozlik borasidagi islohotlar natijasida aholining ijtimoiy-kasbiy va demografik tarkibi, madaniyati, turmush tarzining tubdan oʻzgarib borganligi, urbanizatsiya darajasining koʻtarilganligi hamda iqtisodiyotda bozor infratuzilmasi shakllantirilib, xorijiy davlatlar bilan hamkorliklarni yoʻlga qoʻyilish holatlari ochib berilgan;

Yangi Oʻzbekistonning Uchinchi Renessans davrida tarixiy-meʼmoriy shaharning turizm salohiyatini yuksaltirish va xalqaro miqyosdagi nufuzini oshirish yolida olib borilayotgan ishlar koʻrsatib berilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat. Dissertatsiyada Shahrisabz shahrining XIX asr oxiri – XXI asr boshlaridagi ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotiga doir koʻplab manbalar va ilmiy asarlar xolisona tahlil qilinishi asosida yangi uslubiy va nazariy yondoshuvlar ishlab chiqilib, Shahrisabz shahrining amirlik, sovet va mustaqillik yillaridagi ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayoti borasida toʻplangan maʼlumotlar bazasini yanada kengaytirish mumkin boʻlgan jihatlar aniqlangan;

Shahrisabz shahrining XIX asr oxiri – XXI asr boshlaridagi ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy tarixiga oid koʻplab arxiv hujjatlari va boshqa birlamchi maʼlumotlar ilk marta ilmiy muomalaga kiritilib, shaharning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy jihatdan rivojlantirishga doir taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Tadqiqotda zamonaviy tarix fanida tan olingan nazariy yondashuv va usullarning qoʻllanilganligi, ilmiy isteʼmolga kiritilmagan keng hajmdagi arxiv manbalari, davriy matbuot materiallaridan olingan maʼlumotlardan foydalanilganligi, tadqiqot natijasida ishlab chiqilgan xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy qilinganligi, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqotning ilmiy natijalaridan Oʻzbekiston Respublikasining XIX asr oxiri – XXI asr boshlaridagi tarixini mustaqillik gʻoyalari asosida yoritishda, qadimiy shaharlar tarixi, ularni voha va mintaqalar boʻylab ahamiyatini koʻrsatishda, shahar tarixini oʻrganishga oid nazariy xulosalar, uslubiy yondashuvlarni ishlab chiqish hamda amirlik, sovet va mustaqillik davrlari kesimida qiyosiy tahlil etilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining **amaliy ahamiyati** shundan iboratki, oliy o‘quv yurtlarining o‘quv jarayonida, shuningdek, O‘zbekiston tarixi darsligi bo‘yicha o‘quv qo‘llanmalar yozilganda, tarix yo‘nalishi talabalariga maxsus kurs, seminar mashg‘ulotlarini o‘tkazishda amaliy jihatdan foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** XIX asr oxiri – XXI asr boshlaridagi Shahisabz shahri tarixini tadqiq etish bo‘yicha ishlab chiqilgan ilmiy xulosa va takliflar asosida:

Shahrisabz siyosiy hayotida mustaqillikka, rus bosqinchilari asoratiga tushmaslik yo‘lidagi kurashlar, ijtimoiy hayotda jamiyat ichidagi ijtimoiy zo‘riqishlarning kuchayishi, pirovardida XIX asrning oxirlaridagi xalq noroziliklarini kelib chiqishiga qaramay, shahar savdo va hunarmandchilik markazi bo‘lganligi, shu bilan birga o‘ziga xos ilmiy-madaniy muhit shakllanganligi tarixiy manbalarga tayanib asoslanganligiga oid materiallardan O‘zbekiston “Milliy tiklanish” demokratik partiyasining 2020–2024-yillarga mo‘ljallangan saylovoldi Dasturida keltirilgan “O‘zbekiston tarixini chuqur, keng miqyosda va izchil o‘rganishni ta’minlash, bu borada tarixiylik va xolislik tamoyiliga qat’iy amal qilib, tarixiy o‘tmish va o‘zbek xalqining hozirgi kundagi hayotiga baho berishda, bir yo‘qlama yondoshuvga va noxolislikka yo‘l qo‘ymaslik O‘zbekiston tarixini buzib, soxtalashtirib talqin etilishiga qarshi kurash olib borish, xalqaro keng jamoatchilik diqqat e’tiboriga O‘zbekistonning tarixiy o‘tmishiga doir haqqoniy haqiqatlarni yetkazish” kabi vazifalariga mos keladi (O‘zbekiston “Milliy tiklanish” demokratik partiyasining 2023-yil 2-uyun 02.02.30-sonli ma’lumotnomasi). Natijada partiya tadqiqotda ilgari surilgan ilmiy yangilik, amaliy taklif va xulosalardan uslubiy tavsiyalar, dasturlar va qo‘llanmalar yaratishda keng foydalangan;

sobiq sovet hokimiyati yillarida shahar ijtimoiy infratuzilmasidagi ziddiyatli o‘zgarishlar, ta’lim, sog‘liqni saqlashdagi yangilanishlar, madaniy hayot rivoji va ularning aholi hayotiga ko‘rsatgan ta’siri hamda tarixiy-me’moriy yodgorliklarga sovetlar davrida bo‘lgan munosabatlar, ma’muriy buyruqbozlik va sinfiylikka asoslangan bir tomonlama ziddiyatli va murakkab rivojlanish jarayonlariga oid natijalardan Shahrisabz davlat muzey-qo‘riqxonasi fondi, xususan, Shahrisabz shahrining XX asrga oid topografik xaritalari, madaniy meros obyektlarining foto nusxalari kabi ma’lumotlardan muzey fondini keng boyitishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat va turizm vazirligining 2023-yil 9-iyun 05-12-15-3951-son ma’lumotnomasi). Ularning barchasi muzeyga tashrif buyuruvchilarda qadimgi Shahrisabz shahri tarixi va madaniyatiga oid bilimlarni oshirish va xalqimizning boy moddiy va ma’naviy merosiga hurmat tuyg‘ularini kuchaytirishga xizmat qilgan;

mustaqillik yillarida shaharsozlik borasidagi islohotlar natijasida aholining ijtimoiy-kasbiy va demografik tarkibi, madaniyati, turmush tarzining tubdan o‘zgarib borganligi, urbanizatsiya darajasining ko‘tarilganligi hamda iqtisodiyotda bozor infratuzilmasi shakllantirilib, xorijiy davlatlar bilan hamkorliklarni yo‘lga qo‘yilishiga oid tadqiqot natijalaridan “O‘zbekiston tarixi” telekanalida namoyish etilgan “Taqdimot” ko‘rsatuvi ssenariysini tuzihda foydalanilgan (O‘zbekiston

milliy teleradiokompaniyasi “O‘zbekiston teleradiokanali” davlat unitar korxonasi (2021-yil 6-iyul 02-40-1136-son ma’lumotnomasi). Natijada teletomabinlar shaharda olib borilgan qurilish-bunyodkorlik ishlari jarayonida zamonaviy va ko‘hna shaharning hozirgi kundagi qiyofasi tubdan o‘zgarganligi va turizm markazi sifatida dunyo miqyosida nufuzi ortib borayotganligi haqida xulosalar chiqarish imkoniyatiga ega bo‘lishdi;

Yangi O‘zbekistonning Uchinchi Renessans davrida tarixiy-me’moriy shaharning turizm salohiyatini yuksaltirish va xalqaro miqyosdagi nufuzini oshirishga oid tadqiqot ma’lumotlaridan O‘zbekiston tarixi telekanalining “Taqdimot” ko‘rsatuvida foydalanilgan (O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasi “O‘zbekiston teleradiokanali” davlat unitar korxonasi (2021-yil 6-iyul 02-40-1136-son ma’lumotnomasi). Natijada teletomabinlar tarixiy-memoriy obidalarga boy shaharning turizm salohiyatini yuksaltirish va xalqaro miqyosdagi nufuzini oshirish yolida olib borilayotgan ishlar haqida xulosalar chiqarish imkoniyatiga ega bo‘lishdi.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari asosiy ilmiy-amaliy va ilmiy-nazariy konferensiyalarda, shu jumladan, mazmuni va xulosalari muallif tomonidan e’lon qilingan 7 ta respublika va 3 ta xalqaro konferensiya va seminarlarda o‘z aksini topgan.

**Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 20 ta ilmiy ish, jumladan, 1 ta monografiya, Oliy Attestatsiya Komissiyasi tavsiya qilgan nashrlarda 9 ta maqola, shundan 7 tasi respublika va xorijiy jurnallarda 2 ta, respublika va xalqaro konferensiyalar va to‘plamlarda 10 ta maqola nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan manba va adabiyotlar ro‘yxati hamda ilovalardan iborat bo‘lib, ishning tadqiqot qismi 130 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Tadqiqot matnining “**Kirish**” qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati, muammoning o‘rganilganlik darajasi va ilmiy yangiligi asoslangan. Ilmiy ishning mamlakatimiz fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi, obykti, predmeti, metodlari, maqsadi va vazifalari aniqlangan. Izlanishlar jarayonida olingan natijalarning ilmiy-nazariy va amaliy ahamiyati, ularning amaliyotga joriy qilinganligi, aprobatsiyasi, nashr etilgan ishlar, dissertatsiyaning hajmi to‘g‘risida ma’lumotlar keltirilgan

Dissertatsiyaning birinchi bobi “**XIX asrning oxiri – XX asr boshlarida Buxoro amirligi tarkibidagi Shahrisabz bekligida siyosiy, iqtisodiy-ijtimoiy va madaniy hayot**” deb nomlanib, birinchi bobining *birinchi paragrafida* Buxoro amirligi davrida Shahrisabz bekligida kechgan siyosiy jarayonlar mohiyati ochib berilgan.

Shahrisabz shahrining XIX asrning oxiri – XX asr boshlaridagi yuksalish va shiddatli tanazzul davri Buxoro amirligi tarixining ajralmas bir bo‘lagini tashkil etadi. Buxoro amirligi Buxoro xonligining 1756-yildan keyingi nomi bo‘lib,

ashtarxoniyalar o'rniga kelgan mang'itlar sulolasi vakillari o'zlarini amir deb ataganlariga ko'ra, mazkur davlat Buxoro amirligi deb atala boshlangan va 1920-yil Rossiya bosqini natijasida tugatilganiga qadar shu nom bilan mavjud bo'lgan<sup>13</sup>.

Buxoro amirligi o'z boshqaruvi va ma'muriy bo'linishi bilan ajralib turgan. Buxoro amirligida amir oliy hukmdor hisoblanib, ijro etuvchi hokimiyat qo'shbegi qo'lida bo'lgan. Buxoro amirligi ma'muriy jihatdan bekliklarga bo'lingan. Bekliklar amlokliklarga (tumanlar) bo'lingan.

Amirlikda 27 ta beklik mavjud bo'lib, deyarli barcha beklar amir tomonidan tayinlangan. Aholi soni jihatidan Qarshi (16 amloklikka) va Shahrisabz (14 amloklikka) bekliklari amirlikda oldingi o'rinlarni egallagan<sup>14</sup>.

Shahrisabz bekligining markazi bo'lgan Shahrisabz shahri o'zining ahamiyati va kattaligi jihatidan XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Buxoro amirligida uchinchi shahar hisoblangan<sup>15</sup>. Shahrisabz shahri tuzilishi jihatidan O'rta Osiyo shaharlaridan farqlanmagan, ya'ni qo'rg'on, qal'a va rabotdan iborat bo'lgan. XVIII-XIX asrlarda Shahrisabz paxsa devor bilan o'ralgan bo'lib, shahar atrofini ajratib turuvchi devorlarning 6 ta darvozasi bo'lgan. Shahar guzarlarga bo'lingan. Shahrisabzning guzarga bo'linishi to'g'risidagi ma'lumotlar A. Kun, V.V. Grigorev, O.A. Suxarevalar tomonidan keltiriladi<sup>16</sup>. Shuningdek, XIX asr ikkinchi yarmi hamda XX asrning boshlariga kelib Shahrisabzda 18 mingdan 30 minggacha aholi yashaganligi shaharga tashrif buyurgan sayyoh va olimlar tomonidan e'tirof etilgan<sup>17</sup>.

Beklikni boshqarish bekning shaxsiy nazorati ostida oqsoqollar, sarkorlar, qozilar, raislar, miroblar va mirshablar zimmasiga yuklatilgan. Yuqorida sanab o'tilgan mansabdorlar sarkordan tashqari, jamoat hisobidan maosh olishgan. Mansablar ichida Buxoro amirligi tomonidan tayinlanadigan Shahrisabz begi lavozimi eng yuqori darajali ahamiyatga ega bo'lgan. Shuning uchun ham Shahrisabzda beklik lavozimini egallashda urug'lar va qabilalar vakillari o'rtasida tinimsiz kurashlar bo'lib turgan. 1865–1920-yillarda Shahrisabz bekligi Bobobek, Haydarxon, Mirza Salimbek va Said Karimxonlar tomonidan boshqarilgan.

Xususan, bu davrda Shahrisabz bekligida murakkab siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy jarayonlar yuz berayotgan edi. Beklikning siyosiy hayotida Buxoro amirligiga bo'ysunmaslik, mustaqillik uchun va rus bosqinchilarining asoratiga tushmaslik yo'lida kurashlar muhim o'rin tutgan. 1870-yil 28-avgustda

---

<sup>13</sup> Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. II том. – Тошкент: ЎзМЭ, 2001. – Б. 284.

<sup>14</sup> О'з МА, 126-fond, 1-ro'uxat, 71-ish, 24a-varaq.

<sup>15</sup> Сухарева О.А. К истории городов Бухарского ханства. – Ташкент: Издательство АН УзССР, 1958. – С. 138.

<sup>16</sup> Кун А. Очерки Шахрисабзского бекства // Записки Императорского русского географического общества. По отделению этнографии, том 6. – СПб., 1880. – С. 286; Григорев В.В. Очерки Шахрисабзского бекства. – С. 5; Сухарева О.А. К истории городов Бухарского ханства. – С.131.

<sup>17</sup> Саидбобоев З. Америкалик дипломат Е.Скайлернинг Китоёб-Шахрисабзга оид маълумотлари (XIX асрнинг 70-йиллари). // Шахрисабз шаҳрининг жаҳон тарихида тутган ўрни. – Б. 27-28; Григорев В.В. Очерки Шахрисабзского бекства. – С. 5; Сухарева О.А. К истории городов Бухарского ханства. – С. 131; Логофет Д.Н. Страна бесправия. – СПб., 1909. – С. 64.

general K.P. fon Kaufman Shahrisabz va Kitob beklklarini amir Muzaffar ixtiyoriga topshirgach, vohada Buxoro amirligiga va shahar bekligiga nisbatan munosabatlarda kuchli norozilik harakatlari bo‘lib turgan<sup>18</sup>. Buxoro va Shahrisabz o‘rtasidagi kurashlar keyingi Buxoro amirlari davrida ham davom etgan.

Ushbu bobning *ikkinchi paragrafida* amirlik davrida Shahrisabz bekligining iqtisodiy-ijtimoiy va madaniy hayotidagi holati tahlil qilingan.

XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida Shahrisabz bekligi Buxoro amirligining yirik iqtisodiy markazlaridan biri edi. Qishloq xo‘jaligi va hunarmandchilik keng taraqqiy qilgan Shahrisabz vohasi yirik savdo markazi ham bo‘lgan. Bu holat shu bilan izohlanadiki, Shahrisabz shahri aholisining asosiy qismi savdo va hunarmandchilik bilan shug‘ullangan.

Shahrisabzda savdo-sotiqni ahamiyati iqtisodiy hayotda yuqori darajani tashkil etgan. Bu davrda Shahrisabz Buxoro, Samarqand, Samarqand orqali Farg‘ona vodiysi, Xorazm, Chorjuy, Qarshi va boshqa hududlar bilan keng savdo aloqalarini olib borgan. Shahrisabz – muhim savdo shahri hisoblanib, u ulgurji savdo bo‘ladigan ko‘plab bozorlariga ega bo‘lgan. Xuddi Samarqandda bo‘lgani kabi savdo rastalari o‘rtasida “Chorsu” deb ataladigan minora – imorat qad ko‘targan. Shaharda haftasiga ikki kun bozor bo‘lgan.

Karvonsaroylar shaharda savdoning rivojlanish darajasini ko‘rsatgan. Savdo rivojlana borishi bilan karvonsaroylarning soni ortib borgan<sup>19</sup>. XIX asrning 60–70-yillarida Shahrisabzda 7 ta karvonsaroy mavjud bo‘lsa, XX asr boshlariga kelib ularning soni 28 taga etgan<sup>20</sup>.

Beklik iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridan birini hunarmandchilik tashkil etib, tadqiq qilinayotgan davrda vohaning shahar aholisidan tashqari, yer-suvga ega bo‘lmagan dehqonlari va chorvasi yo‘q qishloq aholisining bir qismi ham hunarmandchilik bilan mashg‘ul bo‘lgan.

Bunday holat nafaqat O‘rta Osiyoda, balki boshqa davlatlarda ham mavjud edi. Yeridan ajralgan dehqonlarning 98 foizi, kam yerli dehqonlarning 73 foizi shaharlarga ish qidirib kelishga majbur bo‘lgan. Davlat boshliqlari dehqonlarni orqaga qaytarish maqsadida ularga qo‘shimcha soliq solmaslik va iqtisodiy zarar etkazmaslikka va‘da bergan, lekin bu amalda bajarilmagan<sup>21</sup>.

Shahar xalqi asosan hunarmandchilik va kosibchilik bilan shug‘ullangan. Bu yerda sopol idishlar, qishloq xo‘jalik asboblari, shuningdek jun va ipdan sholcha, palos va gilamlar to‘qilgan, xilma-xil gazlamalar ishlab chiqarilgan. Shahrisabzlik hunarmandlar nafis va nozik buyumlar yasashni ustasi bo‘lganlar. Zardo‘zlik do‘konlarida zar do‘ppilar, zarkamarlar, ayollarning zarbop kiyimlari, poyafzallar, so‘zanalar va otlar uchun zarbop yopiqlar tayyorlangan<sup>22</sup>.

<sup>18</sup> Ҳақимов Н., Жўрақулов О. Шаҳрисабз тарихи. – Б. 13.

<sup>19</sup> Сухарева О. Бухара. XIX – начало XX в. – М.: Наука, 1966. – С. 52.

<sup>20</sup> Кун А.Л. Очерки ... – С. 224.

<sup>21</sup> Ҳамидова М. Қашқадарё воҳасининг ҳунармандчилиги тарихи (XIX-XX аср бошлари). – Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2009. – Б. 162.

<sup>22</sup> Захаров С., Ҳикматов Н. Шаҳрисабз. – Тошкент: Ўзбекистон, 1979. – Б. 6.

Vohada uzoq vaqt mobaynida taraqqiy etib borgan hunarmandchilik sohalaridan biri to‘qimachilik edi. Uning tarkibida bir nechta tarmoqlar mavjud bo‘lib, ular ip yigirish, mato to‘qish va kashta tikish kabildan iborat edi. Ip yigiruvchilar uchun asosiy xom ashyo paxta, jun va ipak bo‘lib, bu mahsulotlarga Shahrisabz vohasi juda boy bo‘lgan.

XIX asrning ikkinchi yarmida amirlik Rossiya imperiyasi tobeligiga o‘tgandan so‘ng, o‘lkaga tovar va pul ayirboshlash munosabatlari kirib keldi. 1915-yilda Qarshi-G‘uzor-Kitob temir yo‘lining (uzunligi 114,0 km.) qurib ishga tushirilishi, pochta-telegraf idorasini tashkil etilishi, 1916-yilda Qashqadaryoda yagona paxta tozalash zavodini shahrisabzlik Eshonqulboy Soliyev tomonidan ishga tushirilishi voha va shahar iqtisodiy-ijtimoiy hayotiga o‘z ta‘sirini ko‘rsatdi<sup>23</sup>.

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Shahrisabz bekligida ziddiyatli siyosiy jarayonlar va iqtisodiy tangliklarga qaramasdan madaniy hayot ham o‘ziga xos ravishda rivojlangan. Bu davrda Shahrisabzda bir necha madrasa va maktablar ishlab turdi. Shuningdek, shoirlar, xattotlar va usta hunarmandlar faoliyat ko‘rsatdi. Shahrisabzning o‘z adabiy muhiti shakllanadi. Shahrisabz XIX asr oxiri – XX asr boshlarida amir zulmidan qochgan ijod ahli uchun siyosiy boshpanaga aylandi.

Xulosa qilib aytganda, Shahrisabz bekligi Buxoro amirligining muhim tarkibiy qismi va iqtisodiy yuksak rivojlangan hududi sifatida amirlik ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayoti rivojida muhim o‘rin tutgan. Shahrisabz vohasi hayotida savdo va hunarmandchilikning o‘rni katta bo‘lib, aholisining asosiy qismi hunarmandchilik va kosibchilik bilan shug‘ullangan. Shuningdek, shaharda o‘ziga xos ilmiy-madaniy muhit shakllangan. Mazkur muhitda o‘zbek va fors-tojik tillarida olimlar, shoir va adiblar ijod qilgan.

**“Sovet hokimiyati davrida Shahrisabz shahridagi siyosiy, iqtisodiy-ijtimoiy va madaniy hayot”** deb nomlangan ikkinchi bobning *birinchi paragrafida* 1917-yildagi oktabr to‘ntarishi natijasida nafaqat Rossiya balki, uning chekka o‘lkalaridan biri bo‘lgan Turkiston hududida ham sovet hokimiyatining o‘rnatilishi, sobiq sho‘rolar davrida shahar ijtimoiy hayotining rivojlanish tendensiyalari tahlil etilgan.

1920-yil 2-avgustda Buxoro amirligi tugatilgach, 1920-yil 6-oktabrda Buxoro Xalq Sovet Respublikasining Qashqadaryo hududida Qarshi, Shahrisabz, G‘uzor viloyatlari tashkil topdi. Shahrisabz shahri Shahrisabz viloyatining markazi etib tasdiqlandi<sup>24</sup>. 1924-yil oxirida O‘rta Osiyoda milliy-hududiy chegaralanish o‘tkazilishi natijasida Buxoro Sovet Sotsialistik Respublikasi O‘zSSR tarkibiga kiritildi. 1924-yil noyabrda Qashqadaryo viloyati tashkil etilib, uning tarkibida 5 volostdan (Chiroqchi, Kitob, Yakkabog‘, Yangidaryo, Oqsuv) iborat Shahrisabz uyezdi tuzildi<sup>25</sup>.

---

<sup>23</sup> O‘zMA, 126-fond, 1-ro‘yxat, 27-ish, 2-varaq; Чориев А., Очилов М. Қашқадарё тарихи. – Тошкент: Ўзбекистон, 1974. – Б.34.

<sup>24</sup> O‘zMA, 46-fond, 2-ro‘yxat, 10-ish, 103-varaq.

<sup>25</sup> QVDA, 133-fond, 1- ro‘yxat, 151-ish, 288-varaq.

1926-yil 29-sentabrda ma'muriy-iqtisodiy rayonlashtirish amalga oshirilib, respublikada tuzilgan dastlabki 30 dan ortiq tumanlar qatorida Shahrisabz tumani ham tashkil qilindi. Shahrisabz shahri Shahrisabz tumani markazi etib belgilandi<sup>26</sup>. 1929-yil 1-yanvardan Shahrisabzga shahar maqomi berilib, shu yilning martida Shahrisabz shahar Ijroiya Qo'mitasi tashkil etildi<sup>27</sup>.

Ikkinchi jahon urushi yillarida umumiy dushmanga qarshi kurashda shahrisabzliklardan 1148 nafar kishi frontga jo'natildi. Ulardan 10 nafari xotin-qizlar edi<sup>28</sup>. Urush tugaganidan so'ng shahar aholisi va uning ijtimoiy turmushida sezilarli o'zgarishlar amalga oshirila boshlandi. Shahar hududini obodonlashtirish va aholiga maishiy qulayliklar yaratish hamda turmush tarzini oshirish borasida direktiv qarorlar qabul qilindi.

1950-yillarda shahar obodonchiligi uchun ajratilgan mablag'lar hisobidan mehnatkashlar dam oladigan bog', ko'chalar va ko'priklar, shahardagi mehmonxona va hammom ta'mirlandi. 1964-1965-yillarda shahar hududiga 3442 m<sup>2</sup> hajmda yangi uy-joylar qurilib, 169 nafar oila uy bilan taminlandi, 7 ming 754 xonadon gazlashtirildi. 60 ta savdo shahobchalari xaridorlarga xizmat qila boshladi, 308 km. yo'lga asfalt yotqizildi<sup>29</sup>. Viloyatning Qarshi va Shahrisabz shaharlarida yangi telefon stansiyalari ishga tushirildi. 1982-yilda Shahrisabzda 1097 xonadonga radiotochkasi o'rnatildi<sup>30</sup>, 210 xonadonda radiopriyomnik, 510 xonadon televizor xizmatidan foydalandi, deyarli hamma xonadon elektrlashtirildi.

Shahar aholisi yildan-yilga ko'payib bordi. 1970-yilda Shahrisabz shahrida 27,3 ming kishi istiqomat qilgan bo'lsa, 1979-yilda uning aholisi 36,4 ming, 1989-yilda esa 52453 ming kishini tashkil etdi<sup>31</sup>. Bu holat aholini uy-joyga bo'lgan talabini oshishiga ham sabab bo'ldi. Ammo, shaharda 2250 kishi uy-joy qurishga yer uchastkasi so'rab bir necha yillardan beri navbatda turar, qurilayotgan uylar, kvartiralar esa sifatsiz, qurilish tashkilotlari tomonidan binolarni chala holda topshirish holatlari mavjud bo'lib, shahardagi mittitumanlarda esa kanalizatsiya, issiqlik manbai yo'q edi. Gazlashtirish esa 78 foizni tashkil etgan.

Aholining ijtimoiy hayotida sog'liqni saqlash muassasalarining alohida o'rni mavjud. 1924-yilda Turkiston ASSR Sog'liqni saqlash xalq komissarligi Shahrisabzda sog'liqni saqlash bo'limini ochishda ishtirok etdi. 1925-yilda Shahrisabzda mavjud vrachlik uchastkasi 25 o'rinli shifoxonaga aylantirildi. 1930-yilda shaharda 1 ta 35 o'rinli shifoxona, 1 nafar vrach bo'lgan bo'lsa, 1970-yil 100 o'rinli bolalar shifoxonasi, 100 o'rinli yuqumli kasalliklar shifoxasi, 600 o'rinli 4 ta statsionar, 300 o'rinli shahar shifoxonasi ishlab turdi va har 10 000 kishiga 27 nafar vrach, 112 nafar hamshira to'g'ri kelar edi<sup>32</sup>. Shahar tibbiyot tizimiga yillar davomida ajratilgan mablag'lar miqdorini oshib borishi, yangi

<sup>26</sup> Ўзбекистоннинг янги тарихи. 2-китоб. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида. – Тошкент: Шарқ, 2000. – Б. 214-215.

<sup>27</sup> QVDA Shahrisabz filiali, 69-fond, 1-ro'yxat, 2-ish, 1-varaq.

<sup>28</sup> QVDA Shahrisabz filiali, 4-fond.1-ro'yxat, 28-ish.

<sup>29</sup> QVDA Shahrisabz filiali, 4-fond, 1-ro'yxat, 130-ish, 8-varaq.

<sup>30</sup> QVDA, 722-fond, 19-ro'yxat, 175-ish, 57-varaq.

<sup>31</sup> Перепись населения 1989. – Тошкент, 1990. – С. 33-35.

<sup>32</sup> QVDA Shahrisabz filiali, 4-fond, 1-ro'yxat, 143-ish, 15-varaq.

binolar qurilishini va ularning moddiy-texnik bazasi mustahkamlanishiga xizmat qildi.

Mazkur bobning *ikkinchi paragrafida* shahar iqtisodiy infratuzilmasidagi ziddiyatli o'zgarishlar tahlil etilgan.

Sovet davrida Shahrisabz shahri xo'jalik yuritishning sotsialistik uslubi, rejali tizim hamda qattiq markazlashtirilgan xalq xo'jaligi boshqaruvi negizida rivojlandi. Bu avvalo, mulkchilik shakllarining o'zgarishi va uning asosida yangi jamoaviy korxonalar tashkil etila boshlanishida namoyon bo'ldi.

1925-yil dekabrda VKP (b) XIV se'zdi "sotsialistik industrilashtirish" siyosati tomon qadam tashladi. 1920–1925-yillarda sobiq Sovet Ittifoqida aholini sanoat mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojini qondirishni asosiy omillaridan biri mayda kustar sanoatini rivojlantirish edi. Bu davrda mayda kustar sanoati sohasini keng rivojlanishiga asosan, hunarmandchilik sohasidagi tarixiy an'analar, xom ashyo zaxirasining mavjudligi, hunarmandlar mehnat qurollarining oddiyliigi va arzonligi sabab bo'ldi.

30-yillarda mahalliy hunarmandchilikni rivojlantirish ikkinchi darajali masalaga aylandi. Respublikada hunarmandchilik artellari soni yildan-yilga kamayib bordi. 1928-yil 1-noyabrda O'zbekiston Respublikasi Xalq Komissarlar Soveti yig'ilishida Qashqadaryo okrugida sanoat korxonalarini qurish to'g'risidagi masala ko'rib chiqildi. 1928–1929-yillarda okrug hududida selitra zavodi, Shahrisabz shahrida 12 kilovatt quvvatga ega dizel elektrostansiyasi, elektr tarmoqlar qurish to'g'risida qaror qabul qilindi<sup>33</sup>.

XX asrning 50-yillarida xo'jalikning barcha tarmoqlarini urushdan keyin tinch qurilish yo'liga o'tishi ancha qiyin kechdi. Qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqarish oshgani sayin 1950–60-yillarda yog' ekstraksiya va paxta tozalash zavodi singari yangi korxonalar qurildi. 1950-yilda Shahrisabz "Hujum" arteliga "Hujum" badiiy san'at fabrikasi nomi berildi. 1977–78-yillarda Shahrisabz paxta tozalash va konserva zavodlari rekonstruksiya qilinib, qayta ta'mirlandi. 1983-yilda Shahrisabzda mebel fabrikasi va ip-gazlama kombinatining filiali qurilishi bu sohalarni rivojlanishiga olib keldi. Shuningdek, 1970-yilda Shahrisabzda sut-pishloq zavodi ishga tushirildi. Ushbu yillarda Shahrisabz paxta tozalash zavodining mahsulotlari GFR, GDR, Polsha, Chexoslovakiya, Yaponiya kabi mamlakatlarga eksport qilina boshlandi<sup>34</sup>.

XX asr 80-yillarining ikkinchi yarmida sobiq Sovet Ittifoqida boshlangan inqiroz Shahrisabz shahri iqtisodiy-ijtimoiy hayotiga ham o'z ta'sirini ko'rsata boshladi. Masalan, 1985-yilga kelib Pillakashlik fabrikasining 700 ming so'mlik tayyor mahsuloti sotilmay qoldi. 1985-yilda butun sobiq Sovet Ittifoqi hududida boshlangan "qayta qurish" siyosati negizida sanoat korxonalarining o'z-o'zini mablag' bilan ta'minlashi borasida samarasiz amaliy ishlar boshlandi. Natijada sanoat korxonalari sobiq Ittifoq markaziy hukumati tomonidan olib borilgan bir tomonlama siyosat tufayli birlamchi mahsulot yoki xom ashyo yetishtirib beradigan maqomga tushirib qo'yildi.

<sup>33</sup> QVDA, 83-fond, 260-ish, 1-ro'yxat, 5-varaq.

<sup>34</sup> QVDA, 4-fond, 1-ro'yxat, 221-ish, 8-varaq.

Mazkur bobning *uchinchi paragrafida* shahardagi madaniy hayot va tarixiy-me'moriy yodgorliklar holati tahlil qilingan.

Sovet hokimiyatining dastlabki yillaridayoq O'zbekistonning barcha hududlari singari Shahrisabzda ham savodsizlikni tugatish bo'yicha ishlar boshlab yuborildi. 1930-yil 25-iyulda mamlakat boshqaruv organlari "Majburiy umumiy boshlang'ich ta'lim to'g'risi"da qaror qabul qildi. Butun respublikadagi kabi Shahrisabz xalq ta'limi xodimlari ham umumiy majburiy ta'limni amalga oshirishga kirishdilar.

1927–1928-o'quv yilida shaharda boshlang'ich maktablar soni 7 tani, o'quvchilar soni 421 nafarni tashkil etgan bo'lsa, 1981-yilda shaharda 12 ta kunduzgi va 2 ta kechki yoshlar maktabida 13 mingdan ortiq bola ta'lim oldi. Maktablarda bolalar sonining ortib borishi bilan ularda faoliyat yuritadigan pedagoglarning soni ham to'xtovsiz o'sib bordi<sup>35</sup>.

Bolalar va o'smirlarni badiiy, texnik ijodkorligini oshirishda maktabdan tashqari muassasalarning roli va ahamiyati ortib bordi<sup>36</sup>. Arxiv materiallarida qayd etilishicha, shahar maorif tizimida yuqorida qayd etilgan muvaffaqiyatlar bilan bir qatorda, ancha salbiy holatlar ham mavjud bo'lgan<sup>37</sup>. Masalan, 1985-yilda shahardagi 13 ta maktabdan faqat 2 nafarida o'qitish 1 smenada olib borilar, 7 yoshgacha bo'lgan 60 foiz bolalar esa hatto bog'cha va yaslilarga tortilmagan edi<sup>38</sup>.

Sovet hokimiyati davrida, ayniqsa uning dastlabki yillarida ziyolilarning hayoti va ijodi oson kechmadi. O'zbekiston ziyolilari uchun ofat yillari bo'lgan XX asrning 30–40-yillardagi voqealardan Shahrisabzlik shoirlar Mirzo Umrboqiy Shahrisabziy, Abdulla Gulshaniy, Ravnaqiy ham chetda qolmagan.

Shahrisabzda o'rta asr me'morchiligining yuksak rivoj topgan davri XIV asr oxiri va XV asr boshida qurilgan mashhur obidalar saqlanib qolgan. Sovet hokimiyati O'zbekistonning ko'plab shaharlari singari Shahrisabz moddiy yodgorliklariga o'sha davrning mafkurasi ta'siri ostida munosabatda bo'ldi. Kommunistik mafkuraning sinfiylik, partiyaviylik nuqtayi-nazaridan kelib chiqib, madaniy merosga bir tomonlama yondoshuv, ya'ni eski madaniyatni butunlay yo'q qilib, yangi madaniyatni targ'ib qiluvchi "Proletkult" (proletar madaniyati) oqimi yuzaga kelib, o'tmish tuzumda paydo bo'lgan madaniy merosni batamom yo'qotishni targ'ib qildi. Qadimiy yodgorliklar oyoq osti qilindi, qarovsiz qoldirildi, ta'mirlanmadi. Natijada ular xarobaga aylandi.

Xulosa qilganimizda, 1917-yildagi Oktyabr to'ntarishi natijasida Shahrisabzda ham sovet hokimiyati tuzumi o'rnatildi. Shaharda sotsialistik sanoatlashtirish, jamoalashtirish, madaniy o'zgarishlar jarayoni ko'p qiyinchiliklar va ziddiyatlar bilan amalga oshirildi. Bu jarayonga fashizmga qarshi urush yillari ham o'z salbiy ta'sirini ko'rsatdi. Urushdan keyingi yillarda Shahrisabz viloyatda iqtisodiy ko'rsatkichlari bo'yicha Qarshi shahridan keyin ikkinchi shaharga aylandi. Shaharda ta'lim maskanlari, davolash muassasalari, xususan, ixtisoslashgan shifoxonalar, poliklinika binolari bunyod etildi. Ammo, shahar sanoatida 1980-yillarning birinchi

<sup>35</sup> QVDA Shahrisabz filiali, 4-fond, 1-ro'yxat, 280-ish, 6-varaq.

<sup>36</sup> QVDA Shahrisabz filiali, 4-fond, 1-ro'yxat, 188-ish, 124-varaq.

<sup>37</sup> QVDA Shahrisabz filiali, 4-fond, 19-ro'yxat, 175-ish, 12-varaq.

<sup>38</sup> O'z MA, 48-fond, 1-ro'yxat, 33-ish, 8-varaq.; Журакулов О., Рахматов А. Шахрисабз йилномаси. – Б. 17.

yarmida iqtisodiy o'sish pasaya bordi, turg'unlik holati kuchayib, nihoyat 1985–1990-yillarda iqtisodiy tanazzulni keltirib chiqardi.

Dissertatsiyaning **“Mustaqillik davrida Shahrisabz shahrida iqtisodiy-ijtimoiy sohalarda amalga oshirilgan islohotlar va ularning natijalari”** deb nomlangan uchinchi bobning *birinchi paragrafida* Shahrisabz shahar ijtimoiy hayotining rivojlanish tendensiyalari tahlil etildi.

1991-yil 31-avgustda O'zbekiston mustaqilligining e'lon qilinishi Shahrisabz shahri tarixida ham yangi davrni boshlab berdi. 1992-yil 4-yanvardan “O'zbekiston Respublikasining mahalliy hokimiyat idoralarini qayta tashkil etish to'g'risida”gi qonuni asosida mahalliy hokimiyat organlari tizimida butunlay yangi organ hokimlik lavozimi ta'sis etilib, uning vakillik organlariga boshchilik qilishi belgilab qo'yildi<sup>39</sup>. Shahrisabzda 1992-yil 21-iyulda Xalq deputatlari Shahrisabz shahar kengashining XXI-chaqiriq IX-sessiyasida viloyat hokimligining Shahrisabz shahar hokimini tayinlash haqidagi qarori ko'rib chiqildi va Shahrisabz shahri viloyatga bo'ysunuvchi shahar maqomiga ega bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1997-yil 30-sentabrdagi 459-sonli “Shaharlar va tumanlar hokimlari apparati tuzilmasini takomillashtirish to'g'risida”gi qarori asosida Shahrisabz shahar hokimligi tuman hokimligi bilan birlashtirildi<sup>40</sup>. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 11-iyuldagi PQ–3124-sonli qaroriga ko'ra Shahrisabz shahar hokimligi tashkil etilib, viloyat bo'ysunuvidagi shaharlar turkumiga kiritildi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1995-yil 31-avgustdagi 1341-sonli qarori hamda 2010-yil 7-maydagi 53-II-sonli qarorlariga ko'ra shahar hududi kengaydi va aholi soni o'sdi. Shaharda 1991-yilda 53 ming aholi mavjud bo'lsa, 1995-yilda shahar aholisi 70 ming kishiga yaqinlashdi. 2023-yil yanvar holatida aholi soni 140400 nafar kishini, aholining yillik o'sishi 3 foizni tashkil etdi. Bu holat shaharsozlikka xos infratuzilmalarni keng yo'lga qo'yishni talab etar edi.

2014-yil 20-fevralda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Qashqadaryo viloyatining Shahrisabz shahrida obyektlarni qurish va rekonstruksiya qilishga doir kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risida”gi 31-sonli qarori qabul qilindi<sup>41</sup>. Dastur doirasida shaharda yo'l-transport infratuzilmasi obyektlarini qurish va rekonstruksiya qilish, shahar atrofida yangi zamonaviy avtobus stansiyalarini qurish va mavjudlarini mukammal ta'mirlash, shuningdek avtobus parkining harakatdagi tarkibini yangilash, kommunikatsiyalar tizimlarini rivojlantirish, arxitekturaviy-rejalashtirish qiyofasini yaxshilash, tarixiy-madaniy meros obyektlarini restavratsiya qilish va ularning holatini yaxshilash, zamonaviy mehmonxonalar qurish va yakka tartibdagi va ko'p qavatli uy-joylarni loyihalash va ularni qurish uchun yer uchastkalari ajratish kabi vazifalar belgilandi.

<sup>39</sup> Ўзбекистон Республикасининг 1992 йил 4 январдаги “Маҳаллий ҳокимият идораларини қайта ташкил этиш тўғрисида”ги қонуни // <https://lex.uz/docs/29401>

<sup>40</sup> Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 1997 йил 30 сентябрдаги “Шаҳарлар ва туманлар ҳокимлари аппарати тузилмасини тақомиллаштириш тўғрисида”ги қарори. <https://lex.uz/docs/995232?ONDATE=27.12.2018>

<sup>41</sup> Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2014 йил 20 февралдаги “Қашқадарё вилоятининг Шаҳрисабз шаҳрида объекتلарни қуриш ва реконструкция қилишга доир комплекс чора-тадбирлар дастури тўғрисида”ги 31-сонли қарори // <https://www.lex.uz/docs/2345506>

2014–2020-yillarda olib borilgan islohotlar natijasida shahar markaziy ko‘chalari kengaytirildi, barcha magistral suv quvurlari yangilandi, shaharda sayyohlar uchun mo‘ljallangan mehmonxonalar ta‘mirlanib, yangidan jihozlandi. Shuningdek, shahardagi madaniyat saroyi, markaziy bozor, markaziy gaz tarmoqlari ta‘mirlanib, shahar yanada obodonlashtirildi. Ammo, bu amalga oshirilgan ishlar shahar aholisini yetarli tarzda tabiiy gaz, ichimlik suvi, kanalizasiya tizimi bilan ta‘minlay olmadi. Statistik ma‘lumotlarga ko‘ra, 2020-yilda shaharni tabiiy gaz bilan ta‘minlash 41,3%, ichimlik suvi 48,4%, kanalizasiya tizimi 27% ni, 2021-yil 1-yanvar holatida esa tabiiy gaz bilan ta‘minlash 43,4%, ichimlik suvi 31,9%, kanalizasiya tizimi 31,9% ni tashkil etdi<sup>42</sup>. Bu holat shaharda hali yechilmagan muammolar yetarli darajada mavjud ekanligini ko‘rsatdi.

Uchinchi bobning *ikkinchi paragrafida* shahar iqtisodiy infratuzilmasining modernizatsion jarayonlari tahlil qilingan.

1991-yil 1-sentabrga qadar Shahrisabz shahrida 13 ta sanoat korxonasi, 5 ta qurilish tashkiloti, 8 ta transport, 7 ta savdo tashkilotlari mavjud edi. Mustaqillikka erishilganidan keyin sobiq SSSR tarkibida bo‘lgan turli respublikalar o‘rtasidagi iqtisodiy, moliyaviy va ishlab chiqarish bilan bog‘liq aloqalar uzilgani sababli obyektiv va subyektiv qiyinchiliklar yuzaga keldi. Bunday muammolarning yechimini topish, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishni ko‘paytirish, mehnat samaradorligini oshirish, tayyor mahsulotlarni sotish kabi talablar kun tartibiga qo‘yildi.

1991-yil 18-noyabrda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining VIII sessiyasida qabul qilingan “Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish to‘g‘risida”gi qonunga asosan mulkni davlat tasarrufidan chiqarish, ya‘ni xususiylashtirish 1992-yildan boshlangan bo‘lib, 1996-yilning apreliga qadar 120 ta savdo do‘koni, 52 ta maishiy xizmat korxonasi, 24 ta korxonalar va tashkilot, jami 196 ta obyekt davlat tasarrufidan chiqarildi. Bularning hisobidan 21 ta aksionerlik jamiyati, 10 ta jamoa korxonalari va 88 ta xususiy korxonalar tashkil etildi<sup>43</sup>.

Sanoatga xorijiy investitsiyalarning kirib kelishi natijasida o‘nlab qo‘shma korxonalar bunyod etila boshlandi. Mevalarni qayta ishlaydigan “Mevalar kamalagi” o‘zbek-turk-britaniya, iste‘mol yog‘i ishlab chiqaradigan “Shahri-interneyshnl” o‘zbek-amerika, paxta xom ashyosini qayta ishlaydigan “Oqsaroy to‘qimachi LTD” o‘zbek-yapon-turk, don mahsulotlarini qayta ishlaydigan “Shahri Kesh” o‘zbek-turk qo‘shma korxonalari barpo etildi. Tashqi iqtisodiy aloqalar sohasida yutuqlar bilan birga muammolar ham yuzaga kela boshladi. 2001-yil yakunida 7 ta chet el sarmoyalari bilan tashkil etilgan korxonadan atigi 5 tasi ishlamoqda edi. Ularning eksportdagi ulushi 12,8% ni tashkil etgan<sup>44</sup>.

2002-yil 8-fevralda Shahrisabzda sutkasiga 150 tonna bug‘doyni qayta ishlaydigan un zavodi ishga tushirildi<sup>45</sup>. 2002-yil Shahrisabz sanoat korxonalarida

---

<sup>42</sup> Qashqadaryo viloyat Statistika boshqarmasining 2020-2022 yillardagi ma‘lumoti asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

<sup>43</sup> QVHA, 722-fond, 1-ro‘yxat, 1-ish, 119-varaq.

<sup>44</sup> QVHA, 856-fond, 7-ro‘yxat, 33-ish, 21-varaq.

<sup>45</sup> Жўракулов О., Рахматов А. Шахрисабз йилномаси. – Б. 42.

8 milliard 148 ming soʻmlik mahsulot ishlab chiqarildi. Shu yili shaharda yangi ishlab chiqarish korxonalarini tashkil etish orqali 507 ta ishchi oʻrni yaratildi.

Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “2019–2020-yillarda Qashqadaryo viloyatining Shahrisabz shahrini kompleks rivojlantirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi qarori asosida ishlab chiqilgan dasturda shaharni iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yoʻnalishlari belgilab berildi.

Uchinchi bobning *uchinchi paragrafida* shaharning tarixiy, madaniy hayotidagi oʻzgarishlar tahlil qilingan.

Mustaqillik yillarida Shahrisabzning tarixiy oʻrnini va mavqegini tiklash, meʼmoriy obidalarini qaytadan restavratsiya qilish, shaharning madaniy qiyofasini yangilash mustaqillik tufayli xalqqa va yurtga qaytgan buyuk sohibqiron Amir Temur nomini va oʻrnini qaytishi bilan bogʻliq holda yuz berdi. 1996-yilda sohibqiron Amir Temurning 660 yillik yubileyi jahon miqyosida keng nishonlandi. Yubiley munosabati bilan tarixiy yodgorliklar qayta taʼmirlandi. Oqsaroy maydoni yangi qiyofaga kirdi. Shahrisabz shahri muzeyi tashkil etildi.

2000-yillarda Shahrisabzning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy rivojlanishida YUNESKO homiyligida respublika hukumatining 2002-yil 29-martdagi “Shahrisabz shahrining 2700 yilligini nishonlashga tayyorgarlik koʻrish toʻgʻrisida”gi qaroriga koʻra 2002-yil 1-noyabrda shahar yubileyi tantanali ravishda oʻtkazildi<sup>46</sup>. Yubiley munosabati bilan shaharning barcha markaziy koʻchalari kengaytirildi, magistral suv quvurlari yangilandi, shaharda sayyohlar uchun moʻljallangan mehmonxonalar taʼmirlanib, yangidan jihozlandi.

Shuningdek, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentning 2017-yil 17-noyabrdagi “Oʻzbek milliy maqom sanʼatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi qarori xalqimiz madaniyatini asrash va rivojlantirishda muhim qadam boʻldi<sup>47</sup>. Qarorga muvofiq, 2018-yildan boshlab Shahrisabz shahrida har ikki yilda bir marta Xalqaro maqom sanʼati festivali oʻtkazish rejalashtirildi. Shuningdek, Oʻzbekistonning Shahrisabz va Turkiyaning Erzurum shaharlari 2024- va 2025-yillarda IHT turizm poytaxti sifatida tanlandi.

Xulosa qilib aytganda, mustaqillik tufayli bu goʻzal maskan, “Qashqa vohasining zumrad gavhari”, Amir Temur davridagi mavqegini, tarixiy qudratini tom maʼnoda qayta tikladi. Mamlakatimizda bugungi kunda yetti mingdan ortiq yodgorlik, 2500 ta meʼmoriy obida, 2700 dan ortiq monumental sanʼat asari davlat muhofazasiga olingan. Ayni paytda Oʻzbekistondan 4 meʼmoriy majmualar Xiva, Buxoro, Samarqand va Shahrisabzning tarixiy markazlari YUNESKOning “Umumjahon madaniy merosi” roʻyxatiga kiritilgan. Shahrisabz har yili 1–8-fevral kunlari turistik maydonga mezbonlik qilib kelmoqda. Unda soha mutaxassislari, turoperatorlar, chet ellik ekspertlar qatnashib, Oʻzbekiston turistik salohiyatini oshirish, targʻib etishning dolzarb masalalari muhokama qilinmoqda.

---

<sup>46</sup> Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2002 йил 29 мартдаги “Шахрисабз шаҳрининг 2700 йиллигини нишонлашга тайёргарлик кўриш тўғрисида”ги қарори. <https://lex.uz/docs/1677083>

<sup>47</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентнинг 2017 йил 17 ноябрдаги “Ўзбек миллий мақом санъатини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги қарори. <https://lex.uz/docs/-3581613>

## XULOSA

Shahrisabzning XIX asrning oxiri – XXI asr boshlarigi tarixini o‘rganish asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Qashqadaryo vohasi, shu jumladan, Shahrisabz bekligi Buxoro amirligining muhim siyosiy-ma’muriy markazlaridan biri hisoblangan. Bu davrda Shahrisabzda murakkab siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy jarayonlar yuz berayotgan edi. Beklikning siyosiy hayotida Buxoro amirligiga bo‘ysunmaslik, mustaqillik uchun va rus bosqinchilarining asoratiga tushmaslik yo‘lida kurashlar muhim o‘rin tutdi.

2. 1917-yildagi oktabr to‘ntarishi natijasida Rossiyada hokimiyat tepasiga kelgan bolsheviklar Turkistonda mustahkamlanib olib, Buxoro amirligi va Xiva xonligini istilo qilish rejasini tuzdilar. 1920-yil 2-sentabrda Buxoro amirligi tugatildi. Bu hududda bolsheviklar ta’siri ostida bo‘lgan Buxoro Xalq Sovet Respublikasi tuzildi. 1924-yil oxirida O‘rta Osiyoda milliy-hududiy chegaralanish o‘tkazilishi natijasida Buxoro Sovet Sotsialistik Respublikasi O‘zSSR tarkibiga kiritildi. 1926-yil 29-sentabrda ma’muriy-iqtisodiy rayonlashtirish amalga oshirilib, 30 dan ortiq tumanlar qatorida Shahrisabz tumani ham tashkil etildi. Shahrisabz shahri Shahrisabz tumanining markazi etib belgilandi.

3. Shaharda sotsialistik sanoatlashtirish, jamoalashtirish, madaniy o‘zgarishlar jarayoni katta qiyinchiliklar va ziddiyatlar bilan amalga oshirildi. Bu jarayonga fashizmga qarshi urush yillari ham o‘z salbiy ta’sirini ko‘rsatdi. Urushdan keyingi yillarda shahar ijtimoiy hayotida o‘zgarishlar va yangilanishlar yuz berdi. Viloyat shaharlarida uy-joy qurilishi jadallashtirilib, bu sohada muayyan yutuqlar qo‘lga kiritildi. Shaharda ta’lim maskanlari, davolash muassasalari, xususan, ixtisoslashgan shifoxonalar, poliklinika binolari bunyod etildi. Ammo, sobiq sovetlar davrida shahar ta’lim tizimini yaxshilashga harakat qilinsa-da, bu borada o‘z yechimini kutayotgan muammolar to‘planib bordi. Ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarning sustligi o‘quvchi yoshlar o‘rtasida huquqbuzarlik ko‘rsatkichi ortib borishiga sabab bo‘ldi.

4. Sovetlar davrida shahardagi mavjud sanoat korxonalarining yalpi daromadi shahar budjetining asosini tashkil qilib, aholining mehnatga layoqatli qismini ish bilan band etdi. Sanoat ishlab chiqarishida yangi texnika va texnologiyani qo‘llanilishi natijasida ma’lum darajada iqtisodiy samara qo‘lga kiritildi, mehnat unumdorligi oshdi, moddiy turmushda sezilarli o‘zgarishlar yuz berdi. Shahrisabz sanoat shahriga aylandi. Ammo, 1980-yillarning birinchi yarmida shahar sanoatida iqtisodiy o‘sish pasaya bordi, turg‘unlik holati kuchayib, nihoyat 1985–1990-yillarda iqtisodiy tanazzulni keltirib chiqardi.

5. Mustaqillikning dastlabki yillarida respublikada kichik va o‘rta shaharlar hokimliklari tugatilib, tuman hokimliklari bilan birlashtirildi. Shahrisabz shahrining yangi Bosh rejasi tasdiqlandi. Shifoxona va poliklinikalar, ta’lim muassasalari, xizmat ko‘rsatish sohalari soni 2 barobarga ko‘paydi, tarixiy-me’moriy yodgorliklar qayta ta’mirlandi, mehmonxonalar va undagi o‘rinlar soni esa shaharga kelayotgan sayyohlar sonining oshishiga qarab 3 barobardan ortiqqa oshdi. Shaharda urbanizatsiya darajasi ortdi. 2017-yilda Shahrisabzga viloyatga bo‘sunuvchi shahar

maqomining berilishi hududning ijtimoiy-iqtisodiy hamda madaniy rivojlanishida imkoniyatlar eshigini ochib berdi.

6. Shaharda ijtimoiy sohada amalga oshirilgan islohotlar natijasida aholining ijtimoiy himoyasi, ta'lim, sog'liqni saqlash, aholini uy-joy bilan ta'minlash hamda kommunal xizmat ko'rsatish sohalariga e'tibor kuchaydi. Ammo shahardagi ijtimoiy infrastruktura obyektlari yetarli darajada bo'lmay, xizmat ko'rsatish tizimida qator muammolar mavjud edi.

7. Mustaqillik yillari shahardagi zavod va fabrikalar davr talabi bilan yangicha ko'rinishda faoliyat ko'rsatib, ularga yangidan-yangi innovatsion loyihalar tatbiq etildi. Shahrisabz shahri rivojida xorijiy davlatlar bilan hamkorlik muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Shaharda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikka keng yo'l ochildi. Korxonalariga zamonaviy uskunalar o'rnatildi. Bu o'zgarishlar o'z o'rnida shahar aholisining turmush sharoitining yaxshilanishiga imkon yaratdi.

8. Shaharning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy rivojlanishida YUNESKO homiyligida 2002-yil 1-noyabrda shaharning 2700 yillik yubileyi o'tkazilishi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 17-noyabrdagi "O'zbek milliy maqom san'atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-3391-sonli qarori asosida xalqaro maqom festivalini har ikki yilda Shahrisabzda tashkil etilishi va xalqimiz madaniy merosining ajralmas qismi bo'lgan milliy maqom san'atining qadimiy va o'rta asrlardagi tarixi, zamonaviy ijodiy an'analari Maqom muzeyi ekspozitsiyalari orqali xalqaro miqyosda keng targ'ib etilishi, IHT tomonidan Shahrisabzning 2024-yil turizm poytaxti sifatida tanlanishi shahar nufuzini xalqaro miqyosda oshishini ta'minladi.

Tadqiqot yakunida qo'lga kiritilgan ilmiy xulosalar asosida quyidagi **taklif va tavsiyalar** ishlab chiqildi:

Shahardagi mavjud ba'zi sanoat korxonalarining faoliyati tugatilgan, ba'zilarining ishlab chiqarish salohiyati eskirgan. Ularni zamonaviy texnologiya va asbob-uskunalar bilan ta'minlash maqsadga muvofiqdir. Bu esa shahar aholisi ijtimoiy hayoti va maishiy turmush tarzining yaxshilanishiga xizmat qiladi;

Shaharda keng ko'lamli turizm va unga bog'liq xizmat ko'rsatish turlarini rivojlantirish, turizm sohasida yangi savdo va xizmat ko'rsatish obyektlarini tashkil etish, ularni zarur infratuzilma bilan ta'minlash, xorijiy hamda mahalliy sayyohlar uchun munosib shart-sharoitlar yaratish va ularga ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini yaxshilash, sohada aholining bandligini oshirish va daromad manbalarini ko'paytirish orqali respublikamizning ichki va tashqi turizm imkoniyatlaridan yanada kengroq foydalanish lozim.

Oliy o'quv yurtlari "Tarix" yo'nalishi o'quv dasturlariga Shahrisabz shahrining XIX asr oxiri – XXI asr boshlaridagi ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotiga oid o'rganilgan manbalar bilan bog'liq ma'lumotlarni kiritish;

"Shahrisabz tarixi" nomli shaharning qadimgi, o'rta asrlar va yangi davr hamda mustaqillik davrini yorituvchi fundamental asarni tayyorlash va chop etish, shaharga tashrif buyuradigan turistlar uchun shahar tarixiy-me'moriy yodgorliklarini qisqacha tarixi, joylashgan o'rni va shahardagi mehmonxonalar va hududdagi dam olish maskanlari to'g'risida ma'lumot beruvchi saytlar, qo'llanmalarni tayyorlash zarur.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ PhD.03/27.02.2021.Tar.70.05 ПО  
ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ  
КАРШИНСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

---

**КАРШИНСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ**

**КАМАЛОВА ХАБИБА МУХАММАДИЕВНА**

**ИСТОРИЯ ГОРОДА ШАХРИСАБЗА КОНЦА XIX –  
НАЧАЛА XXI ВЕКОВ**

**07.00.01 – История Узбекистан**

**АВТОРЕФЕРАТ**  
**диссертации на соискание ученой степени доктора философии (PhD) по**  
**ИСТОРИЧЕСКИМ НАУКАМ**

**Карши – 2024**

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии под номером № В2023.3.PhD/Tar313.

Диссертация выполнена в Каршинском государственном университете.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекском, русском, английском (резюме)) размещен на веб-сайте Научного совета ([www.qarshidu.uz](http://www.qarshidu.uz)) и Информационно-образовательном портале «ZiyoNet» ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)).

Научный руководитель:

Комолов Дилшод Пулатович  
доктор исторических наук, доцент

Официальные оппоненты:

Худойкулов Тулкин Дустбобоевич  
доктор исторических наук, профессор

Мансуров Улутбек Умарович  
доктор философии по истории (PhD), доцент

Ведущая организация:

Термезский государственный университет

Защита диссертации состоится « 9 » 11 2024 года в 11<sup>00</sup> часов на заседании Научного совета PhD.03/27.02.2021. Tar.70.05 по присуждению ученой степени доктора философии (PhD) по историческим наукам при Каршинском государственном университете (Адрес: 180103, город Карши, улица Кучабог, 17. Тел.: (0 375) 225-34-13; факс: (0375) 221-00-56, e-mail: qarshidu@email.uz). Каршинском государственном университете.

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Каршинского государственного университета (зарегистрирован за № PhD). (Адрес: 180103, город Карши, улица Кучабог, 17. Тел.: (0 375) 225-34-13).

Автореферат диссертации разослан « 23 » 10 2024 года  
(протокол реестра рассылки № 16 от « 23 » 10 2024 года).



[Signature]  
Б.Ж. Эшов  
Председатель Научного совета  
по присуждению ученых степеней,  
д.и.н., профессор

[Signature]  
Н.Н. Ражабова  
Ученый секретарь Научного  
совета по присуждению ученых  
степеней, к.и.н., доцент

[Signature]  
Ю.А. Эргашева  
Председатель научного семинара  
при Научном совете по  
присуждению ученых степеней,  
д.и.н., профессор

## **ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))**

**Актуальность и необходимость темы диссертации.** Во всем мире в настоящее время осуществляются масштабные работы в области развития исторических и новых городов. В этом отношении ООН и ее специализированное учреждение по вопросам образования, науки и культуры – ЮНЕСКО разрабатываются и внедряются в жизнь ряд программ. В результате этого разрабатываются и внедряются в жизнь различные программы в целях сохранения и развития истории многих городов мира, обладающих своей исторической и материальной культурой. В частности, в историографии Узбекистана также имеют актуальное практическое значение такие вопросы, как экология исторических городов, улучшение условий жизни населения, проблемы инфраструктуры городов и урбанизации, сохранения в них историко-культурных памятников в подлинном виде.

В условиях интенсивного развития урбанизации в различных странах и государствах мира приобретают глобальный характер вопросы всестороннего исследования и изучения истории различных городов. Поэтому в многочисленных научно-исследовательских центрах и ведущих научных и образовательных учреждениях мира осуществляются систематические исследования, посвященные изучению свойственных определенным регионам процессов градостроительства, уделяется особое внимание и приобретают актуальность вопросы в области туризма, который является необходимостью в настоящее время. А также, изучение современными методами источников, связанных с историей городов Центральной Азии, богатых уникальными древними архитектурными памятниками и введение их в оборот исторической науки оценивается как актуальная проблема мировой науки.

Сегодня ведутся эффективные работы по системной организации исследований в области изучения истории нашей Родины, внедрению новых, современных технологий и достижений в научные исследования, опираясь на междисциплинарные связи при изучении истории нашей страны. Научное исследование истории и исторических процессов, политико-исторической ситуации, основных причин и особенностей их возникновения, особенно донесение до подрастающего поколения исторических источников, материального и духовного наследия, оставленного нашими предками, является основным фактором стабильности просвещенное общество. Ведь, как отметил Президент Республики Узбекистан, «...до сих пор мы брали те части истории, которые нам нравились, и скрывали ту сторону, которая нам не нравилась. Нравится это кому-то или нет, наша ли гордость или радость, успех или предательство – все должно быть написано правдиво»<sup>1</sup>. В связи с этим изучение общественно-политической, экономической и культурной

---

<sup>1</sup> <https://www.gazeta.uz/oz/2021/08/31/president/>

истории города Шахрисабза конца XIX – начала XXI веков становится объективной необходимостью.

Настоящая диссертация в определенной степени служит выполнению задач по развитию научно-исследовательской и инновационной деятельности, научных исследований, популяризации и обогащению богатого исторического, материального и культурного наследия нашего народа, определенных в Указе Президента Республики Узбекистан УП-6097 от 29 октября 2020 года 2020-йил 29-октябрдаги ПФ-6097-сон «Об утверждении концепции развития науки до 2030 года»<sup>2</sup>, УП-60 от 28 января 2022 года «О стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы»<sup>3</sup>, постановлении Кабинета Министров Республики Узбекистан № 31 от 20 февраля 2014 года «О программе комплексных мер по застройке и реконструкции г. Шахрисабза Кашкадарьинской области»<sup>4</sup>, № 87 от 25 марта 2016 года «Об образовании департамента по благоустройству, озеленению и содержанию исторической части города Шахрисабза»<sup>5</sup>.

**Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики.** Настоящее исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий I. «Формирование системы инновационных идей социального, правового, экономического культурного и духовно-просветительского развития информационного общества и демократического государства и пути ее реализации».

**Степень изученности проблемы.** В связи с тем, что города охватывают все сферы жизни общества, они изучались в историческом, архитектурном, географическом, экономическом аспектах. Одним из таких аспектов является также история древних городов, источники исследования на основе периодизации, теоретико-методологических основ можно подразделить на следующие группы:

1. Источники конца XIX – начала XX веков;
2. Исследования, проведенные в период советской власти;
3. Изыскания периода независимости;
4. Труды зарубежных исследователей.

---

<sup>2</sup> Указ Президента Республики Узбекистан УП-6097 от 29 октября 2020 года «Об утверждении Концепции развития науки до 2030 года» <https://www.lex.uz/docs/5073447>.

<sup>3</sup> Указ Президента Республики Узбекистан «О стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы» <https://lex.uz/docs/3107036>.

<sup>4</sup> Постановление Кабинета Министров Республики Узбекистан от 20 февраля 2014 года «О программе комплексных мер по застройке и реконструкции г. Шахрисабза Кашкадарьинской области». <https://www.lex.uz/docs/2345506>.

<sup>5</sup> Постановление Кабинета Министров Республики Узбекистан от 25 мая 2016 года «Об образовании департамента по благоустройству, озеленению и содержанию исторической части города Шахрисабза». <https://www.lex.uz/docs/2920109>.

*К работам первой группы относятся*, в основном, источники конца XIX – начала XX веков, труды и воспоминания русских и английских военных, востоковедов и дипломатов<sup>6</sup>, которые отличаются изучением истории социально-экономической и культурной жизни города Шахрисабза периода Бухарского эмирата. В трудах академика И. Бекчурин, А. Куна, Н. Маева, В. Григорьева уделено внимание социально-политическому положению Шахрисабза в период эмирата, приведены сведения о его политической роли, численности населения, национально-этническом составе, образе жизни, видах занятий населения, исторических памятниках.

Не отрицая общей ценности данных исследований, связанных с Шахрисабзом, следует отметить, что труды русских востоковедов в основном были направлены на защиту колонизаторских интересов России того периода.

*Литература второй группы* связана с изысканиями советского периода, осуществленными такими учеными, как Г.А. Пугаченкова, О.А. Сухарева, С. Захаров, М. Хикматов, А.И. Рустамов, А. Чориев, М. Очилов, Л.И. Манковская и другими<sup>7</sup>. В исследованиях советского периода ярко отражены «возвеличивание» политики градостроительства и индустриализации

---

